

VATAN-AZIZ, TINCHLIK BARQAROR

Dilnura Abduvahobova*Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 31-umumta`lim**maktabining 9-sinf o`quvchisi,**Buloqboshi tumani Axborot kutubxona markazi**“ Ijodkor yoshlar “klubining a`zosi***Annotatsiya:** Mazkur maqola "**Vatan – aziz, tinchlik – barqaror**"

mavzusiga bag`ishlangan bo`lib, unda Vatan tushunchasining muqaddasligi va tinchlikning barqarorligi inson hayotidagi eng yuksak qadriyat ekanligi yoritib beriladi. Vatanparvarlik, milliy birlik va taraqqiyot tushunchalari tahlil qilinib, tinchlikning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, tarixiy tajribalar va zamonaviy dunyodagi geosiyosiy holatlar misolida tinchlikni saqlash yo`llari ko`rib chiqiladi. Ushbu maqola Vatanni sevisish va uni himoya qilish hissini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so`zlar: Vatan, tinchlik, barqarorlik, milliy birlik, taraqqiyot, mustaqillik, hurriyat, osoyishtalik, vatanparvarlik, himoya, farovonlik.

Vatan! Bu-har qanday insonning yuragi, qalbi, ruhi orom oladigan muqaddas go`sha.Unda nafaqat yashash mumkin, balki tarix, kelajak yaratiladi.Biz yoshlar badiiy asarlar, turli adabiyotlar mutolaa qilar ekanmiz, o`qiyotgan asarimizning har biri bizni hayotga, Vatanga, yaqinlarimiz bilan mehr-oqibatli bo`lishga da`vat qilayotgan, undayotganga o`xshaydi. Biz-baxtli yoshlarmiz! Yurtimiz farovon, kunlarimiz-sokin, osoyishta, osmonimiz sof, erkinmiz.Barcha istaklarimiz ,orzu-maqсадlarimizning amalga oshishi uchun imkoniyatlar yetarli. Faqat, qalbda intilish, harakat bo`lsa bas. Haqiqatan ham ,agar inson bir nimani diliga tugib, unga yetishish uchun astoydil harakat qilsa, mehnatdan bo`yin tovlamasa, kurashsa albatta unga erishar ekan. Bu-aniq! Chunki, otam, onam, bobom, buvim ,yaqin kattalarning hayot tajribalari , intilishlari haqidagi real voqealarga boy ,mazmunli kechinmalariga o`zimiz guvohmiz. Shunday mamlakatda ,bayram, to`y-tomoshalar to`xtamaydigan , to`qlik va farovonlik ustivor yurtida yashayotganimizdan mamnun holda, o`qiymiz, o`rganamiz, ijod qilamiz.

Meni bir narsa uzoq o`yga toldiradi: biz ko`z ochib ko`rgan yurt-O`zbekiston azaldan tinch va sokin mamlakat.Bizning tasavvurivizda ,yurtimiz doim shunday edi, shunday bo`lib qoladi, yangilanib borayotgan ,taraqqiy etib, gullayotgan go`zal elimizning xalqi, odamlari ham tinchliksevarxalq. Shuning uchun ham bu yurt-tinchlik ramzi , boshqacha bo`lishini sira tasavvur qila olmaymiz.Ammo...Dunyoning qaysidir puchmoqlarida, qaysidir davlatlar o`rtasida qonli urush avj olgan ,qaysidir mamlakatlar bir-birlariga tahdidni kuchaytirgani haqidagi xabarlardan seskanamiz, xavotirga tushamiz.Ayniqsa, o`tgan oquv yili aynan urush borayotgan mamlakatlardan birida erta yakunlandi. Sababi, bolalar urush qurboni bo`lgandilar.Nohaqlikdan, notinchlikdan aziyat chekayotgan,suvga, nonga tashna yurtida yashayotgan tengdoshlarimga achinaman, ular haqida o`ylayman. Ularning bolaligi qanday

o‘tyapti ekan?! Ular o‘z Vatanlari haqida, bolalik, yoshlik zavqi haqida she‘rlar yod olisharmikin?! Agar ular orasida ijodkorlari bo‘lsa, o‘z ijodlarida nimalarni aks ettirishayotgan ekan?! Shular haqida juda bilгим keladi. Men o‘z yurtimni hech qaysi boy yoki taraqqiy etgan davlatga almashmasdim.

O‘siq o‘tlar hidi anqib turgan dalalar, ekinzorlar, sshoxlari mevalarining mo‘lligidan egilib turgan daraxtzor bog‘lari, issiq non uzib olingan qiziq tandirlar ...Jambil, rayhon hidi anqib turgan o‘zbek hovlilari...bularni sevmay bo‘ladimi?! “Ko‘zmunchog‘im”, “farishtam” deb erkalaydi biz nabiralarini bobojon, buvijonim. Onam har gal non yopganda, bug‘doy nonining hidi dimog‘imizga uriladi. Kulchalarni holvaytarlarga botirib yeymiz. Buning ta‘mini, bunday mazani hech qaysi ta‘m berolmaydi. Men ana shu yurtning bir bo‘lagiman, boy an‘analarga, muqaddas urf-odatlar bilan jahonga dong taratgan o‘zbek degan yurtning bir farzandi ekanimdan g‘ururlanaman.

Inson uchun eng qadrlı, eng aziz tushuncha – bu Vatan. Vatan – insonning tug‘ilib o‘sgan yurti, ota-bobolari mehnati singgan muqaddas maskan. Har bir inson uchun Vatan qadrlıdır, chunki u hayotining ajralmas qismidir. Mustaqil davlatimiz tinchligi, yurtimiz osoyishtaligi tufayli xalqimiz farovon hayot kechirmoqda. Shu bois, har birimiz ona yurtimizni ardoqlashimiz, uni yanada obod qilishga intilishimiz lozim.

Tinchlik – xalqning eng katta boyligi. Agar jamiyatda tinchlik hukm surmasa, rivojlanish haqida so‘z yuritish qiyin. Tinchlik barqaror bo‘lgan yurtida odamlar bemalol yashaydi, farovonlik oshadi, ilm-fan, madaniyat va iqtisodiyot taraqqiy etadi. Afsuski, dunyoning ayrim hududlarida tinchlik izdan chiqayotganini ko‘rishimiz mumkin. Urush va mojarolar sababli minglab begunoh insonlar jabr chekmoqda. Bunday holatlar tinchlikning naqadar muhim ne‘mat ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Mustaqil O‘zbekiston tinchlik va barqarorlik tamoyillariga asoslangan holda rivojlanmoqda. Mamlakatimizda tinch hayot va osoyishtalikni mustahkamlash borasida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xalqimiz bag‘rikenglik va totuvlikni saqlashga intiladi. Turli millat va elat vakillari hamjihatlikda yashab, yurt ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi ham tinchlik va taraqqiyotga asoslangan.

Har birimiz o‘z ona yurtimizga muhabbat bilan xizmat qilsak, milliy qadriyatlarimizni asrasak, kelajak avlodlarga tinch va obod yurt qoldiramiz. Bugungi kunda bizga tinchlikni asrab-avaylash, Vatanimizni sevish va unga fidokorona xizmat qilish burchi yuklatilgan. Unutmasligimiz kerakki, Vatan aziz – tinchlik barqaror! Shu bois, tinchlikni qadrlaylik, Vatanimiz ravnaqi yo‘lida astoydil mehnat qilaylik!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. W.W.W.Ziyo.net
2. Жаббарова, Ю. (2024). Chet ellik talabalar uchun lingvistik va madaniy komponentlarni o‘z ichiga olgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish. Лингвоспектр, 3(1), 180-184.

3. Xujamuradovna, J. Y. (2024). MATN SHAKLLANISHIDA QARINDOSHLIK ATAMALARINING O‘ZIGA XOS O‘RNI. worldly knowledge conferens, 8(2), 71-73.
4. Xujamuradovna, J. Y. (2024). “QARINDOSHLIK” KONSEPTI SEMANTIK KO‘LAMINING YAQIN VA UZOQ HUDUDLARIGA BIR NAZAR. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 5(2), 1468-1470.
5. Жаббарова, Ю. (2023). Значение интеграционных процессов в образовании. Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании, 1(1), 57-64.
6. Жаббарова, Ю. (2023). Образование молодежи—судьба народа, прогресс родины. Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании, 1(1), 48-56.
7. Жаббарова, Ю. Х. (2023). ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «РОДНЯ» В УСЛОВИЯХ ДИСКУРСА. In НАУЧНЫЕ РЕВОЛЮЦИИ: СУЩНОСТЬ И РОЛЬ В РАЗВИТИИ НАУКИ И ТЕХНИКИ (pp. 81-83).
8. Жаббарова, Ю. (2022). KINSHIP TERMINOLOGY AS AN IMPORTANT ETHNOGRAPHIC AND HISTORICAL SOURCE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(5).
9. КОННОТАЦИЯ, Қ. Т. И. П. Жаббарова Юлдуз Хужамурадовна. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY.
10. Nazim, B. (2024). THE USE OF FACT-CHECKING INSTRUMENTS IN ENHANCING MEDIA LITERACY. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(2), 440-444.